

GLOBALLASHUV SHAROITIDA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI HOLATI VA UNI TA’MINLASHNING RIVOJLANISH TENDENTSIYALARI

Tadjibayev Omadbek Ashuraliyevich

O‘zbekiston Milliy universiteti

Iqtisodiyot fakulteti magistranti

O‘zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha huquqiy va institutsional asoslar davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash uchun xalqaro standartlarga mos qonunchilik bazasi va institutsional tizimni rivojlantirish ustida faol ishlamoqda. Bu sohadagi muvaffaqiyat oziq-ovqat mahsulotlari sifatini oshirish va aholini xavfsiz oziq-ovqat bilan ta’minlashga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "2020–2030-yillarda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash strategiyasi" O‘zbekiston oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish, barqaror qishloq xo‘jaligini ta’minlash, va aholini xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash maqsadida qabul qilindi. Bu strategiya davlatning oziq-ovqat xavfsizligi sohasidagi uzoq muddatli siyosatini belgilaydi.

Strategiyaning asosiy maqsadlari.

1. Mahalliy oziq-ovqat ishlab chiqarishni rivojlantirish: Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali ishlab chiqarish hajmini oshirish. Ichki bozorda oziq-ovqat mahsulotlari tannarxini pasaytirish.

2. Aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash: Oziq-ovqat mahsulotlarining gigiyenik va sanitariya talablariga muvofiqligini ta’minlash. Mahsulot xavfsizligi ustidan davlat nazoratini kuchaytirish.

3. Eksport salohiyatini oshirish: Xalqaro standartlarga javob beradigan oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish. Mahsulotlarni xorijiy bozorlar talablariga moslashtirish.

4. Barqaror qishloq xo‘jaligini ta’minlash: Yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish. Iqlim o‘zgarishiga moslashuvchan qishloq xo‘jaligi tizimini rivojlantirish.

Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash va oziq-ovqat ishlab chiqarishining ichki salohiyatini oshirish, mamlakatni global iqtisodiy tizimda raqobatbardosh bo‘lishi uchun muhimdir. Shu bilan birga, bu sohadagi islohotlar va chora-tadbirlar mamlakatning umumiy iqtisodiy barqarorligini mustahkamlaydi va aholi farovonligini oshiradi. Mamlakatimizda yetishtirilayotgan meva-sabzavot mahsulotlari bugungi kunda nafaqat ichki bozorni balki jahon bozorini ham to‘ldirib kelmoqda.

O‘tgan yili 23 mln tonna poliz mahsulotlari va meva-sabzavot yetishtirildi, qayta ishlash orqali 86 trln so‘mlik mahsulot ishlab chiqarildi, oziq-ovqat mahsulotlari

eksporti 1,7 mlrd dollardan oshdi.¹ Oxirgi 5 yilda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish yillik o‘sishi o‘rtacha 18 foizni tashkil etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari bilan 2024 yil yakunigacha asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari uchun import bojxona boji nol stavka belgilangan. 2024 yilning yanvar–aprel oylarida asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlar importi 670,6 mln dollarni tashkil qilib, 2023 yilning mos davriga nisbatan 20 foizga yoki 169,1 mln dollarga kamaydi.²

Bunda, aralash o‘simliklar yog‘i importi 4,2 mln dollarga, bug‘doy 74 140,5 mln dollarga, kungaboqar urug‘i 8 mln dollarga, shakar xomashyosi 53,9 mln dollarga, guruch 1,9 mln dollarga, margarin 8,6 mln dollarga, makaron 2,5 mln dollarga, kungaboqar yog‘i 20,8 mln dollarga qisqargan.

Ayrim mahsulotlar importi oshgan, jumladan go‘sht mahsulotlari importi 122,5 mln dollarga yoki 35 foizga oshgan.

Sohada yechimini kutayotgan muhim masala, sanoat va qishloq xo‘jaligini rivojlantirish dasturlarini uyg‘unlashtirish va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish va qayta ishlashni davlat tomonidan rag‘batlantirish va moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning kompleks tizimini yaratish hisoblanadi.

Bu choralar ayrim oziq-ovqat mahsulotlari narxining birdaniga keskin oshib ketishini oldini olish orqali bozorda “ajiotaj” va aholining kambag‘al qatlami orasida ijtimoiy noroziliklar paydo bo‘lishiga oldini olish imkoniyatini beradi.

Sohadagi yana bir muhim masala ishlab chiqarish samaradorligi hisoblanadi.

Masalan, 2016–2022 yillarda sut yetishtirish deyarli 20 foizga oshgan, bu davrda sigirlar soni 17,7 foizga oshgan bo‘lsada, ishlab chiqarish samaradorligining o‘sishi esa 1 foiz atrofida bo‘lgan.

Shunday qilib, bitta sigirdan sog‘ib olinadigan yillik o‘rtacha sut miqdori 2 310 kgni tashkil etadi. Holbuki, Rossiyada bu ko‘rsatkich 5 017 kgni (2,2 barobar ko‘p), Belarusda 5 367 kgni (2,3 barobar ko‘p), Avstriyada 7 275 kgni (3,1 barobar ko‘p), Niderlandiyada 9 149 kgni (deyarli 4 barobar ko‘p), Isroilda 12 736 kgni (5,5 barobar ko‘p)ni tashkil etadi.

O‘zbekistonda har ming kishiga 140 bosh sigir to‘g‘ri kelgan bir paytda, AQSHda bor-yo‘g‘i 40 bosh, Buyuk Britaniyada 44 bosh, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida 45-48 bosh sigir to‘g‘ri keladi.³

Soha mutaxassislari va olimlarning fikriga ko‘ra yaylov yerlari holati yomonlashib borayotganligi, yaylov va pichanzorlarda o‘simlik turlari soni qariyb 20

¹ <https://asr.gov.uz/>. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik islohotlar agentligi

² <https://asr.gov.uz/>. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik islohotlar agentligi.

³ <https://asr.gov.uz/>. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik islohotlar agentligi

foizga qisqarganligi kelgusida hosildorlikni 2 barobar kamayishiga olib kelishi mumkin.

Qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat sanoati korxonalarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash deyarli barcha mamlakatlarda mavjud.

Globalizatsiya sharoitida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash dolzarb masalaga aylandi. Jahon miqyosida ushbu sohaning hozirgi holati quyidagi xulosalarni beradi: Oziq-ovqat xavfsizligi muammolarining o‘shishi:

Aholi sonining ortishi, iqlim o‘zgarishi va tabiiy resurslar cheklanganligi oziq-ovqat xavfsizligiga jiddiy xavf tug‘dirmoqda. Ayniqsa, qashshoqlik darajasi yuqori bo‘lgan mintaqalarda muammo yanada chuqurlashmoqda.